

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Babanazarova Feruza

Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri shak-shubhasiz korporativ boshqaruv tushunchasidir. "Korporativ boshqaruv oldindan mavjud, shuningdek ushbu atama yangi hamdir". Bunga korporativ boshqaruv organlari tomonidan faoliyati samarali tashkil etilib kelinayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalari, transmilliy korporatsiyalar va hokazolarning milliy va jahon iqtisodiyotidagi o'rni sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, xususan mamlakatimizda ham korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Keltirilayotgan jihatlar sabab korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati, uning maqsad va vazifalarini to'g'ri anglash maqsadga muvofiq.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda va bu borada tadqiqotchilarning fikrlari xilma xilligiga guvoh bo'lish mumkin.

Korporativ boshqaruvning asosiy vazifalari esa quyidagilardir:

- korporativ tuzilma joriy moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilib borish;
- aksiyadorlar (shu jumladan minoritar aksiyadorlar) huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirib borish orqali biznes qiymatini maksimallashtirish;
- rivojlanish strategiyalarini belgilash va ularni amalga oshirib borish ustidan nazorat o'rnatish va boshqalar.

Korporativ boshqaruvning tarixan rivojlanishi korporativ boshqaruv nazariyalari shakllanishiga ham xizmat qildi. Bunday nazariyalar quyidagilar:

- aksiyadorlar nazariyasi;
- agentlik nazariyasi;
- shartnomalar nazariyasi;
- manfaatdor tomonlar nazariyasi;
- korporativ ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi.

Aksiyadorlar sonining va faoliyat ko'lamining kengayishi avvalo birgalikda boshqaruvda murakkablikni yuzaga keltirdi. Boshqa tomondan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat doirasining kengayishi o'ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltirdi va professional boshqaruvchilarni jalb qilishni shart qilib qo'ydi. Natijada korporativ boshqaruvda agentlik nazariyasi shakllandi. Bu nazariya agentlarni, ya'ni professional boshqaruvchilarni faoliyatga jalb qilishni nazarda tutadi.



1 rasm. Agentlik nazariyasi yuzaga kelishiga sabab

Manba: Muallif tomonidan mustaqil atyyorlangan

Professional boshqaruvchilarning yirik aksiyadorlar tomonidan saylanishi (yoki tayinlanishi) natijasida professional bosh-qaruvchilar bilan manfaatlar to'qnashuvi hamda mayda aksiyadorlar bilan muammo yuzaga keltirdi (2-rasm):



4.1.2-rasm. Korporativ boshqaruvga agentlarni jalb qilish natijasida yuzaga keladigan muammolar

Manba: Muallif tomonidan mustaqil atyyorlangan

Aksiyadorlik jamiyatlarida professional boshqaruvchilar bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda mayda aksiyadorlar bilan muammoni bartaraf etish maqsadida shartnomalar nazariyasi yuzaga keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

14. 'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi

“Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 26 apreldagi “Davlat aktivlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.